

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Kengashi yig‘ilishining 6-Bayonnomasidan

**KO‘CHIRMA**

2024-yil 1-fevral

Toshkent shahri

**Qatnashdilar:** 102 nafar Kengash a’zosi.

**Qatnashmadilar:** 6 nafar Kengash a’zosi.

**KUN TARTIBI:**

**10.18. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashining tarkibi va “O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashi to‘g‘risida Nizom” tasdig‘i haqida.**

**Eshitildi:** Universitet rektori, Kengash raisi, professor I.Tuxtasinov Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 22-fevraldag‘i “O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining rahbar xodimlari va professor-o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 7-sonli XDFU buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rahbar xodimlari va professor-o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” talablari asosida attestatsiya natijalariga ko‘ra Kengash a’zolari tarkibi qayta ko‘rib chiqilgani va yangi Kengash tarkibini tasdiqlash lozimligi, shuningdek “O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashi to‘g‘risida Nizom”da

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashi:

- Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalar va dasturlarning qat’iy bajarilishini o‘rganib chiqadi, tahlil qiladi hamda ustuvor masalalar bo‘yicha tavsiya va topshiriqlar belgilash;
- universitetning o‘quv-pedagogik, ilmiy tadqiqot faoliyatining sifati va tayyorlanadigan kadrlarining raqobatbardoshliliginini ta’minlashga qaratilgan xorijiy ilg‘or tizimlarni boshqaruv va ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda universitetning ishtiropi hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish;
- universitet rahbariyatining mamlakat oliy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida faol ishtirop etish borasidagi mas’uliyatni oshirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilash;
- universitetning akademik hamda moliyaviy-iqtisodiy jihatdan mustaqillikka erishishi borasida kerakli chora-tadbirlarni belgilash;
- universitetning kadrlar salohiyati va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish;
- universitetning milliy va xalqaro reyting natijalarini tahlil qilish, tahlil natijalariga qarab milliy reytingning yuqori pog‘onalaridan o‘rin olish, Quacquarelli Symonds (QS) va Times Nigher Education (TNE) xalqaro reytinglarida ishtirop etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
- fakultetlarning o‘quv, ilmiy tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy ishlari, universitet huzuridagi akademik litsey hamda ilmiy jamiyatlarning faoliyati, qabul komissiyasining qabul natijalari to‘g‘risidagi hisobotlarini, shuningdek, bitiruvchi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji, buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari to‘g‘risidagi faoliyatini o‘rganish bo‘yicha rektor buyruqlari bilan tuzilgan komissiyalar hisobotlarini eshitadi hamda tegishli qarorlar qabul qilish;
- universitet professor-o‘qituvchilarini bilan umumta’lim, akademik litsey, o‘rtamaxsus ta’limi muassasalari hamkorligida bajarilgan ishlar hisobotini muhokama qilib borish;

- “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq kafedra mudiri, professor-o‘qituvchilar lavozimlarini egallah bo‘yicha tanlovlardan e’lon qiladi va o‘tkazish;
- jismoniy madaniyat va sport kafedrasini mudiri lavozimini egallah uchun tanlov o‘tkaziladigan Kengash yig‘ilishini tegishli vazirlik vakilining ishtirokida o‘tkazish;
- professor, dosent ilmiy unvonini olishga tavsiya etiladigan xodimlarning hujjatlarini o‘rganib chiqadi va belgilangan tartibda ilmiy unvonga tasdiqlash uchun tanlov asosida tavsiya etish;
- ta’lim jarayonining o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganligi, yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalar, shuningdek, innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga asoslangan o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash va nashr etish masalalarini muhokama qilish;
- doktoranturaga tavsiya etilgan nomzodlarniig shaxsiy rejalarini va dissertasiyalari mavzularini, ilmiy rahbarlari va xorijiy ilmiy maslahatchilarini tasdiqlash;
- iqtidorli talabalar safidan va professor-o‘qituvchilar tarkibidan nomzodlarni tegishli jamg‘armalar orqali xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘qish, malaka oshirish, stajirovka o‘tishga tavsiya etish;
- universitet iqtidorli talabalari va magistrantlari safidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi va atoqli davlat stipendiyalari tanlovlari nomzodlar tavsiya etish kabi vazifalarni bajarishini ta’kidladi.

Universitet rektori, Kengash raisi, professor I.Tuxtasinov Kengash a’zolari tarkibi va “O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashi to‘g‘risida Nizom”ni tasdiqlash uchun ovozga qo‘ydi.

Universitet Kengashi a’zolari tomonidan Kengash a’zolari tarkibi va “O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashi to‘g‘risida Nizom” bir ovozdan ma’qullandi (universitet Kengashi a’zolari tarkibi va “O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashi to‘g‘risida Nizom” ilova qilinadi).

Kengash yig‘ilishi

### **Q A R O R Q I L A D I :**

1. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengash a’zolari tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashi to‘g‘risida Nizom” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**Kengash raisi**

**Kengash kotibi**

**I.Tuxtasinov**

**S.Ataxanova**



**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zDJTU rektori, Kengash  
raisi, professor I.Tuxtasinov**



**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI KENGASHI  
TO‘G‘RISIDA NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2011-yil 3- dekabrdagi 487-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasining Kengashi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 181-son qarori 2-bandni hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 2-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-fevraldagi 181-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 214-son va 2019-yil 1-apreldagi “Vazirlikning ayrim buyruqlariga qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 296-son buyruqlariga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, universitet Kengashi faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

**I. Umumiy qoidalar.**

1. Universitet Kengashi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining mazkur Nizomga muvofiq o‘quv, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy, iqtisodiy, tadbirkorlik, tashkiliy sohalarga oid asosiy masalalarni ko‘rib chiqish uchun tashkil etiladi.

2. Kengash tarkibiga universitet rektori, prorektorlar, Kengash kotibi, fakultetlar dekanlari, universitet tarkibiga kiruvchi mustaqil tashkilot va tarmoqlar rahbarlari, mutaxassis chiqaruvchi kafedralar mudirlari, universitetning bo‘lim boshliqlari, jamoat tashkilotlari rahbarlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi boshlig‘i, universitet qoshidagi akademik litsey direktori va universitet yuristkonsulti o‘z xizmat lavozimlari bo‘yicha kiritiladi. Bundan tashqari, Kengashning boshqa a’zolari fakultetlarning umumiy majlislarida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar. Professor-o‘qituvchilar tarkibidan universitet Kengashiga saylanuvchi a’zolarning soni rektor buyrug‘i bilan belgilanadi. Kengash tarkibiga muayyan yo‘nalish muammolari bo‘yicha ishlayotgan yirik olim va mutaxassislar ham kiritilishi mumkin. Universitet Kengashining vakolat muddati 5 yil.

3. Kengash tarkibi universitet rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Har o‘quv yilining boshida turli sabablarga ko‘ra kengash tarkibidan chiqqan a’zolar o‘rniga yangi a’zolar saylanadi yoki Nizom bo‘yicha kiritiladi.

## **II. Kengashning maqsad va vazifalari.**

4. Kengashning maqsadi universitet jamoasining intellektual salohiyati, ilmiy, pedagogik va boshqa imkoniyatlarini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta’minalash, oliy ta’limning davlat ta’lim standarti talablari darajasida mukammal bilim, malaka, ko‘nikmalariga ega bo‘lgan professional mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirishdan iborat.

5. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashi:

- Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalar va dasturlarning qat’iy bajarilishini o‘rganib chiqadi, tahlil qiladi hamda ustuvor masalalar bo‘yicha tavsija va topshiriqlar belgilaydi;
- universitetning o‘quv-pedagogik, ilmiy tadqiqot faoliyatining sifati va tayyorlanadigan kadrlarining raqobatbardoshlilagini ta’minalashga qaratilgan xorijiy ilg‘or tizimlarni boshqaruv va ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda universitetning ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etadi;
- universitet rahbariyatining mamlakat oliy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas’uliyatni oshirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi;
- universitetning akademik hamda moliyaviy-iqtisodiy jihatdan mustaqillikka erishishi borasida kerakli chora-tadbirlarni belgilaydi;
- universitetning kadrlar salohiyati va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;
- universitetning milliy va xalqaro reyting natijalarini tahlil qilish, tahlil natijalariga qarab milliy reytingning yuqori pog‘onalaridan o‘rin olish, Quacquarelli Symonds (QS) va Times Nigher Education (TNE) xalqaro reytinglarida ishtirok etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
- fakultetlarning o‘quv, ilmiy tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy ishlari, universitet huzuridagi akademik litsey hamda ilmiy jamiyatlarning faoliyati, qabul komissiyasining qabul natijalari to‘g‘risidagi hisobotlarini, shuningdek, bitiruvchi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji, buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari to‘g‘risidagi faoliyatini o‘rganish bo‘yicha rektor buyruqlari bilan tuzilgan komissiyalar hisobotlarini eshitadi hamda tegishli qarorlar qabul qiladi;
- universitet professor-o‘qituvchilar bilan umumta’lim, akademik litsey, o‘rtamaxsus ta’limi muassasalari hamkorligida bajarilgan ishlar hisobotini muhokama qilib boradi;
- universitet bitiruvchilarini korxona va tashkilotlarning ehtiyojidan kelib chiqib, ishga joylashtirish monitoringi to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitib boradi;
- universitet qabul kvotasini shakllantirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berib boradi;
- ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejalari ijrosi, professor-o‘qituvchilar tarkibining malaka oshirish va qayta tayyorlash masalalarini muhokama qiladi, universitet

huzuridagi malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi rahbarining hisobotini eshitadi hamda tegishli qarorlar qabul qiladi;

- universitetni rivojlantirishning yillik va istiqbol rejalarini tasdiqlaydi, moddiy-texnik ta'minoti va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini muhokama qiladi hamda tegishli qarorlar qabul qiladi;

- fakultetlar va kafedralarni ochish, tugatish, o'zgartirish, shuningdek marketing xizmati takliflarini hisobga olgan holda yangi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish yoki to'xtatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

- "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq kafedra mudiri, professor-o'qituvchilar lavozimlarini egallash bo'yicha tanlovlardan e'lon qiladi va o'tkazadi;

- jismoniy madaniyat va sport kafedrasi mudiri lavozimini egallash uchun tanlov o'tkaziladigan Kengash yig'ilishini tegishli vazirlik vakilining ishtirokida o'tkazadi;

- professor, dosent ilmiy unvonini olishga tavsiya etiladigan xodimlarning hujjatlarini o'rganib chiqadi va belgilangan tartibda ilmiy unvonga tasdiqlash uchun tanlov asosida tavsiya etadi;

- ta'lim jarayonining o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligi, yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, shuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga asoslangan o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlash va nashr etish masalalarini muhokama qiladi;

- doktoranturaga tavsiya etilgan nomzodlarniig shaxsiy rejalarini va dissertasiyalari mavzularini, ilmiy rahbarlari va xorijiy ilmiy maslahatchilarini tasdiqlaydi;

- iqtidorli talabalar safidan va professor-o'qituvchilar tarkibidan nomzodlarni tegishli jamg'armalar orqali xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qish, malaka oshirish, stajirovka o'tishga tavsiya etadi;

- universitet iqtidorli talabalarini va magistrantlari safidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi va atoqli davlat stipendiyalarini tanlovlariiga nomzodlar tavsiya etadi;

- asosiy buyurtmachi tashkilot, korxona va muassasalar bilan korporativ hamkorlikni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, talabalarniig yillik malakaviy amaliyotiga yakun yassash hamda uning samaradorligini oshirish masalalarini muhokama qiladi va ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

- fanlar akademiyasi tarmoq institutlari bilan hamkorlikda kafedralar filiallarini ochish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

- ilmiy tadqiqot ishlarini yakunlash, darslik, o'quv qo'llanmalari va monografiyalar yaratish uchun ijodiy ta'tillar berishga tavsiya etadi;

- universitet talabalarini, professor-o'qituvchilarini, xodimlarining xavfsizlik texnikasiga rioya etishlari va mehnat muhofazasini takomillashtirish bo'yicha qaror qabul qiladi;

- oliy ta'lim bo'yicha Prezident Qarorlari, Farmonlari, Hukumat qarorlari hamda O'zbekistonda yilning nomlanishidan kelib chiqib qabul qilingan davlat miqyosidagi turli dasturlar ijrosi bo'yicha hisobotlarni muhokama etadi va tegishli qarorlar qabul qiladi.

### **III. Kengash faoliyatini tashkil etish.**

3.1. Kengash o‘z faoliyatini har o‘quv yili uchun iyun oyida ishlab chiqiladigan rejaga muvofiq amalga oshiradi. Kengash ish rejasi kengash a’zolari tomonidan ko‘rib chiqilganidan so‘ng universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi.

3.2. Kengashda ko‘rib chiqish uchun uning vakolatidagi universitet faoliyati bilan bog‘liq masalalar universitet Ish reglamentiga asosan kiritiladi.

3.3. Kengash yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishni muvofiqlashtirish kengash kotibiga topshiriladi. Kengash kotib kengash majlisining kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ma’lumotnama va qaror loyihalarini tayyorlash, yig‘ilishga Kengash a’zolari va taklif etiladigan xodimlarni xabardor qilish hamda Kengash majlisi qarorlarini o‘rnatalgan tartibda rasmiylashtirib, joylarga o‘z vaqtida etkazishga oid barcha ishlarni tashkil etadi. Amalga oshirilgan ishlar haqida rektorga axborot beradi.

3.4. Universitet Kengashi majlislarida muhokama etiladigan masalalar, tasdiqlangan ish rejaga muvofiq, prorektorlar, fakultetlar dekanlari, bo‘limlar boshliqlari, ular bo‘limgan (buyruq asosida xizmat safari, mehnat ta’tilda bo‘lgan) hollarda esa ularning o‘rinbosarlari tomonidan kiritiladi.

3.5. Kengash majlisining kun tartibi, ish rejaga muvofiq, yig‘ilish o‘tkaziladigan kundan 15 kun oldin rektor bilan kelishilgan holda tayyorlanadi va masalani tayyorlashga mas’ul bo‘limlarga xabar beriladi. Kengash a’zolariga taklifnomalar majlisdan 5 kun oldin Kengash kotibi tomonidan tarqatiladi. Zarur hollarda, kengash majlisining kun tartibiga qo‘srimcha masalalar rektor ruxsati bilan navbatdagi majlisga 2 kun qolgunga qadar kiritilishi mumkin.

3.6. Universitetning o‘quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy ishlarga doir barcha masalalar bo‘yicha Kengash qarorlari ochiq ovoz berish tartibida ko‘pchilikning ovozi bilan qabul qilinadi. Kengash majlisi uning tarkibidagi a’zolarning 2/3 qismi ishtirok etgandagina haqiqiy hisoblanadi.

3.7. Professor-o‘qituvchilar tarkibi lavozimlarini egallash hamda professor yoki dosent ilmiy unvonlarini berish bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlovlар va taqdimnomalar yuzasidan qarorlar yopiq ovoz berish yo‘li bilan belgilangan tartibda qabul qilinadi.

3.8. Kengash qarorlari universitet rektori tomonidan imzolaganidan so‘ng kuchga kiradi.

3.9. Kengash majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomalar Kengash raisi va Kengash kotibi tomonidan imzolanadi.

3.10. Kengash raisi tomonidan Kengash qarorlarining bajarilishi muntazam nazorat qilib boriladi.

### **IV. Kengash qarorlari ijrosi va javobgarlik.**

4.1. “Ijro uchun” tayyorlangan bayonnomasi qarorlari nusxasi prorektorlar, fakultetlar dekanlari, mas’ul xodimlarga tarqatiladi.

4.2. Qabul qilingan qarorlarning bajarilishi yuzasidan Kengash kotibi Kengash a'zolariga rejaga muvofiq axborot berib boradi.

4.3. Prorektorlar, fakultetlar dekanlari, bo'limlar boshliqlari va qarorlar ijrosi bo'yicha mas'ul etib tayinlanganlar Kengash qarorlari bo'yicha qisqacha hisobotlarini har oyning 25-sanasigacha va fakultetlar Kengashlaridagi muhokamasi bo'yicha esa har chorak oxirgi oyining 25-sanasiga Kengash kotibiga taqdim etib boradilar.

4.4. Kengash qarorlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 28-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy yo'riqnomasi asosida tayyorlangan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ish yuritish tartibiga asosan Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi "Ijro intizomini yanada mustahkamlash to'g'risida"gi 12-son qarori talablariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etiladi.

4.5. Kengash muhokamasiga kiritiladigan hujjatlarning asoslanganligi va sifati, keltirilgan ma'lumotlar va boshqa materiallarning to'g'riliqi uchun ularning loyihasini tayyorlagan shaxslar yoki uni imzolagan mas'ul xodimlar (prorektorlar, fakultetlar dekanlari, bo'limlar boshliqlari va boshqalar) shaxsan javobgardirlar.

4.6. Uzrsiz sabablarga ko'ra ijro intizomining qo'pol ravishda buzilishiga yo'llo'yan mas'ul shaxslarga rektor buyrug'iga asosan intizomiy choralar qo'llaniladi.

4.7. Kengash faoliyatini olib borishda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ustavi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ish reglamenti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ichki tartib-qoidalariga ham asoslaniladi.